

TARIX FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Safarov Firdavs Rustam o'g'li

Prezident ta'lim muassasalari agentligi qoshidagi
Sariosiyo Ixtisoslashtirilgan maktab internati
tarix fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Tarix fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, Tarix fanini o'qitishda qo'llaniladigan texnologiyalarga tarixiylik, qiyosiylik tamoyillari nuqtai nazaridan baho berilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiyalar, tarix fani, maktab, o'quvchi, metodika, metodologiya*

ABSTRACT

This article presents opinions on the importance of using pedagogical technologies in the teaching of History. In addition, the technologies used in the teaching of history were assessed in terms of the principles of historicity and comparability.

Key words: *pedagogical technologies, history, school, student, methodology, methodology*

KIRISH

Ma'lumki, hozirgi zamon har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rniga haqqoniy baho berish vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi a'naviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmog'i lozim. Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida oliyjanob fazilatlarni mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi¹. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha o'qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. *Ko'rgazmalilik asosida tashkil etiladigan darsda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan o'quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida.* Chunonchi, tarix darslarida O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi darslarida mazmunan o'xshash bo'lgan "Osiyo mamlakatlari madaniyati", "Yevropada o'rta asr shaharlari", "Osiyo mamlakatlarining o'rta asr shaharlari" kabi mavzularni o'rganish bo'yicha.

2. *Mavzularning bir-biriga o'xshashligi:* o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish.

3. *Umumlashtirish* - o'quv fanlarining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o'rgatish maqsadida turli o'quv fanlari bo'yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash-umumlashtirish darslarida o'quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish.

Agarda, dars jarayonida quyidagi *didaktik shartlarga* amal qilinsa, o'qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi: o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish; aralash o'quv kurslari

¹ Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009. – B. 122.

bo'yicha, muammolilik, ko'rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin.

Bizga ma'lumki tarix juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu" desak bo'ladi va bu ko'zguna qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fiklashini rivojlantirishga, milliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayishi tabiiy. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqishlariga qaratilgan. Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagicha izohlashimiz mumkin: Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi. Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'limtarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

O'quvchilarga tarix fanini chuqur o'rgatish yuzasidan ijtimoiy fan o'qituvchilariga rivojlanib borayotgan jamiyatning o'zi qator talablar qo'ygan. Zamonaviy tarix fani o'qituvchisi ta'lim olishga butun umr davom etadigan jarayon sifatida qaraydi. O'quvchilarda tarixiy ong va tarixiy taffakurni shakllantirish, dunyo xalqlari hamda ko'p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy va ummumsoniy qadriyatlariga hurmat hisida tarbiyalash, o'quvchilarga davlatchiligimiz tarixi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini anglatish, o'quvchilarga tayanch va tarix faniga oid umumiy va kuchaytirilgan kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat maqsadni amalga oshirishi lozim.

Tarix fanining samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalarga amal qilish yaxshi samara beradi:

Dars jarayonida qo'llaniladigan metodlarning uyg'unligiga alohida e'tibor qaratish;

Og'zaki bayon; hikoya, monolog, dialog, suhbat, syujetli hikoya, analitik syujet usullaridan unumli foydalanish;

Dars jarayonida sinflarning o'ziga xoslik xususiyatidan kelib chiqqan holda tarixiy manba bilan ishlashni shakllantirish-tarixiy adabiyotlar, tarixiy hujjatlar, tarixiy ma'lumotlar;

Darslarda badiiy va tarixiy adabiyotlardan foydalanish natijasida o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish;

Mavzuga oid ko'rgazmali va shunga o'xshash vositalardan dars jarayonida foydalanish;

Yangi yaratilgan darsliklardan unumli foydalanish, faqat o'qib yoki o'quvchilarga o'qitish emas, tarixga oid bo'lgan rasm va materiallardan kengroq foydalanish;

Dars jarayonida (an'anaviy va noan'anaviy darslar, seminar mashg'ulotlari, o'quv ekskursiyalari, anjumanlar) larni tashkillashtirish;

Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning ehtiyojlarini o'rganish, ta'lim jarayonini uning mazmunidagi yangiliklar hamda o'qitish metodikasiga oid so'nggi yutuqlar asosida shakllantirish².

XULOSA

Ilg'or tajribalarni ommalashtirish va targ'ib qilish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining hamda hududiy malaka oshirish insitutlari professor-o'qituvchilari, metodistlar, ilg'or tajribali, tashabbuskor o'qituvchilarni jalb qilgan holda joylarda "Tayanch maktablar"ning imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Dars o'tishda "Aqliy hujm", "BBB", "Bingo", "Claster", "Toj", "Zinama-zina", "Marra sari olg'a", "Shar" va boshqa usullardan foydalanish tavsiya etiladi, ammo tavsiya etilayotgan metod va shakllar bilan cheklanib qolishi kerak emas. Ta'lim va tarbiya berishga qaratilgan har qanday uslubiy yondashish tarix o'qituvchisining shaxsiy tajribasining kamol topishiga xizmat qilishi kerak. O'quvchilarning tarix faniga qiziqishini shakllantirish va rivojlantirish har bir darsning qanday saviyada tashkil qilinishiga bog'liq.

² Abduqodirov A., R.Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" Toshkent: 2008. – B. 81.

REFERENCES

1. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. «Ta'lim taraqqiyoti», 3-maxsus son.-T.: «Sharq», 1999 y.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1998 yil.
3. Беспалько, В.П. Слагаемые педагогических технологий. - М: 1989. - 192 с.
4. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
5. Saidov, S. (2022). “TADBIR UL-MANZIL” RISOLASI–OILAVIY MUNOSABATLAR UCHUN DASTURULAMAL. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 894-897.
6. Саидов, С. (2022). ЯНГИ МАЪНАВИЙ МАКОННИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ИБН МУҚАФФА АСАРЛАРИНИНГ РОЛИ. *International scientific journal of Biruni*, 1(3), 19-22.
7. Panjiyev, S. (2019). CONCEPTS OF TRUTH OF THE NEW TIME. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(7), 170-173.
8. Мустафаев, У. У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС Пойдевори шаклланаётган даврда фалсафий фанларни ўқитишни ислоҳ қилиш янги ўзбекистон эҳтиёжи. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 99-108.
9. Mustafayev, U. U. (2021). TA'LIM BOZORI VA INTELLEKTUAL SOTSIAL “TOVAR” SIFATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 218-226.
10. Турдибоев, Б. Х. (2022). ТАРИХИЙ ЖАРАЁНЛАРНИ ИЖТИМОЙ–ФАЛСАФИЙ БИЛИШНИНГ ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 742-749.
11. Raxmanov, Abdimalik (2022). SHARQ RENESSANSI DAVRI GUMANIZMINING GNOSEOLOGIK VA ONTOLOGIK ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 668-674.